

MORFOLOGIYA BO'YICHA IJODIY TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASH

Eshnayeva Feruza Qarshiyevna

Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
e-mail:eshnayevaf@gmail.com
tel.raqami:+998906002487

Annotatsiya: Mazkur ishda morfologiya bo'limini o'qitishda ijodiy topshiriqlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Unda so'z turkumlari, grammatik shakllar va morfologik birliklarni o'rgatishda ijodiy yondashuvning o'rni, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, morfologiya mavzulari bo'yicha ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqish usullari, ularning turlari hamda ta'lim jarayonidagi samaradorligi misollar orqali ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari morfologiyani o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: morfologiya, ijodiy topshiriqlar, so'z turkumlari, grammatik shakl, til birliklari, mustaqil fikrlash, innovatsion ta'lim, metodika.

Morfologiyani, so'z turkumlarini o'rganish, til o'qitish metodikasida asosiy o'rin tutadi. So'z va tushunchalarni anglatgan belgisiga ko'ra guruhlash, egalik va kelishik kategoriyalari bo'yicha turlash, ulardan turli grammatik shakllar hosil qilish, uyadosh atamalarini tanlash va ular ma'nosini sharhlash kabi ijodiy ishlar o'quvchilarda leksik zag'iraning kengayishi va nuthiy mahoratning shakllanishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

So'zning grammatik shakllari tizimi paradigma deyiladi. Til birliklari paradigmatic, nutq birliklari esa sintagmatic bog'lanishda yashaydi. Ushbu o'rinda til

bilan nutqning o'zaro munosabatini misol qilib oladigan bo'lsak, **til** hamma o'zbeklar uchun **o'zgarmas miqdor** bo'lsa, **nutq** tildan bir shaxs tomonidan hosil qilingan **muvaqqat qurilmadir**.

Tilshunoslikning morfologiya bo'limida o'rganiladigan guruhlanish, turkumlanish hodisasi, uyadosh so'zlarni tanlash jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu hodisa til o'qitish metodikasida yangi texnologik vosita bo'lib, u o'quvchining leksik zahirasi boyitishda muhim ahamiyatga ega.

Grammatik shakl so'zning u yoki bu grammatik vosita yordamida o'zgarishidir. Turli grammatik shakllar hosil qilish so'zning paradigmatic o'zgarishi bo'lib, u leksik ma'no hamda kategorial grammatik ma'nolar birligiga asoslanadi. So'zning grammatik shakllari tizimi morfologik paradigmatica (turlanish, tuslanish tartibi, o'zgarishlar yig'indisi) sanaladi. Ma'lumki, «mustaqil so'zlar ob'ektiv borliqdagi ma'lum bir predmet, belgi, harakat miqdor kabilarni anglatadi. Bu so'zning leksik ma'nosi hisoblanadi. Grammatik ma'no so'zning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi, leksik ma'noga qo'shimcha tarzda ma'no orttirish, so'zni so'zga, gapni gapga bog'lash, birlashtirish vazifasini bajaradi hamda maxsus vositalar (masalan, qo'shimchalar) orqali ifodalanadi. Grammatik ma'no va grammatik shakl (so'z shakli) deganda, mustaqil so'zlarga nazarda tutiladi»¹.

Grammatik ma'no quyidagicha ifodalanadi:

- o'zak (negiz) ga grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimcha qo'shish bilan: kitob-im, kitob-ni, o'qidi - ng, yaxshi-roq;
- yordamchi so'zlar bilan: siz uchun, radio orqali, keldi-yu gapirmadi;
- so'zlarni takrorlash bilan: burro – burro gapirdi, katta-katta qurilishlar.

So'zlar leksik–semantik ma'nosi, grammatik belgilariga ko'ra guruhlariga bo'linadi. Ular so'z turkumlaridir.

O'qituvchi o'quvchilarga so'z turkumlari haqida o'rganilgan bilimlarni takrorlash va tekshirish uchun lug'at diktanti yozdirishi mumkin.

Lug'at ustida ishlash. Ta'limda ona tili o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarga ona tilidagi so'zning ma'no va mohiyatini o'rgatishdan, so'zni his

etishga yo'llashdan iborat. Bunda so'z ma'nolarini o'zlashtirish va uni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash malakasining hosil qilinishi alohida o'rin tutadi. Buning uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor beriladi. Lug'at ustida ishlash ona tili darslaridagi oddiy mashg'ulot emas. Mazkur jarayonda:

-o'quvchining aqliy va nutqiy jihatdan rivojlanishi ko'zda tutiladi;-dasturda belgilangan ilmiy-nazariy hamda metodik vazifalar bajariladi: aqliy, axloqiy-ma'naviy, badiiy-estetik tarbiya amalga oshiriladi; ularning ona tili zamiriga yashiringanteran mazmun, sir-u sinoatlar, fayz-u go'zalliklarni ilg'ab olishiga imkon beriladi.

Shuning uchun ham *lug'at ustidagi ish* oddiy va tasodifiy mashg'ulotlar bo'lib qolmasligi, balki muntazam va qat'iy rejaga tayanadigan, uzoq va oliy maqsadlarga xizmat qiladigan, *uzluksiz tizim* tarzida amalga oshishi kerak.

Lug'at ustida ishlaganda har bir so'zning amaliy jihatlariga, amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi. Har bir so'zning o'quvchi shaxsining dunyoni bilish va o'zlashtirishdagi, uning nutqiy faoliyatidagi muayyan bir xizmatlari bo'lishini ta'minlash shart. Masalan, «elig» degan so'zning qadimda turkiy xalqlar tilida mamlakat hukmdori ma'nosida qo'llangani, uning oddiy so'zlashuv tilida ham, o'z davridagi adabiy tilda ham faol iste'molda bo'lganligini bilish, o'quvchiga faqat ona tili darslari uchun emas, balki tarix, adabiyot fanlaridagi tegishli atama va tushunchalar mohiyatini o'zlashtirishlari uchun ham amaliy jihatdan kerak bo'ladi.

So'zlarni tanlashda ularning qo'llanish darajasi ham e'tiborda turishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, kam qo'llanadigan, o'quvchining amaliy faoliyatida deyarli qo'llanmaydigan so'z emas, balki uning amaliyotida tez-tez uchrab turadigan so'zlarga ko'proq murojaat qilish o'quvchi nutqiy faoliyatining silliqlashishiga, boyishiga, bu jarayonning tasodifiy kamchiliklardan holi bo'lishiga omil bo'ladi.

Albatta, bu jarayonda o'quvchilarning «yuk ko'tarish qobiliyatlari» hech qachon nazardan chetda qolmasligi kerak. Buning uchun faqat ona tili ta'limidagi uzviylik va uzluksizlik kifoya qilmaydi, balki imkoniyat doirasida boshqa predmetlar bilan aloqadorlik nazarda tutilgani ham ishning yutug'iga poydevor bo'la oladi.

Har bir matn, tushuncha, atama ustida ishlashdan tashqari, o'quvchilarga turli-tuman lug'atlardan foydalanishni o'rgatish ham tizimli tarzda yo'lga qo'yilishiga erishish muhim. O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan so'zlarning umumiy miqdori va hajmi belgilangan bo'lishi, buning uchun lug'at minimumdan tortib, tegishli so'zlarning alfavitli tizimi ishlab chiqilishi ish muvaffaqiyatini ta'minlaydigan dastlabki omillardir. O'quvchilar uzviylik va uzluksizlik printsiplari asosida sinonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati, o'zbek tilining izohli lug'ati bilan tanishtirilib borishlari kerak. Tilshunoslikning, ona tilining turli bo'limlarini o'rganishda bu ishning o'ziga xos imkoniyatlaridan foydalanish o'rinli bo'ladi. Bu jarayondagi eng muhim bosqich esa so'z ma'nolarini o'zlashtirish bilan aloqador.

So'z ma'nolari ustidagi ish murakkab va qiyindir. Bolalarda yangi, ayniqsa, ma'nosi xiraroq so'zlarga alohida va jiddiy e'tibor qaratish hissini tarbiyalashga erishish oson kechmaydi. Ammo muntazam va barqaror mashqlar tizimi bu vazifani bajarishni osonlashtiradi. Shunga ko'ra har doim matn ustida ishlaganda yangi so'zlarga va so'zlarning yangi ma'nolarda qo'llanganiga e'tiborni tortish, o'quvchilarning bu sohadagi ko'nikma va malaklarining shakllanishi va takomillashishiga imkon beradi. Buning uchun amaliyotda qo'llanadigan ayrim shakl va usullarni eslatish mumkin:

1. Yangi so'zning ma'nosini izohli lug'at vositasida oydinlash -tirish.
2. Berilgan so'zning ma'nodoshlarini topish.
3. Matn-dagi so'zning ma'nosiga zid bo'lgan boshqa so'zlarni keltirish.
4. So'z yasalishiga oid tahlilni amalga oshirish.
5. So'zning kelib chiqishiga oid tahlil bilan shug'ullanish, ya'ni so'zning etimologiyasini aniqlash.
6. So'zning o'z va ko'chma ma'nolarini, ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlash.
7. So'z ma'nosini izohlash va imkoniyatga qarab, boshqa tillarga tarjima qilish. va h.k.

Lug'at diktanti. Uy, to'y, tosh, chaqmoq, momaqaldir, daraxt, majlis, odob, azob, do'stlik, kitob, ishchi, go'zal, kichik, shirin, bilimli, oq, o'qi, yoz, chop,

kel, o'yla, ishladi, uxladi, suhbatlashdi, so'zladi. Diktant yozib bo'lingach, o'quvchilar har bir so'zning lug'aviy ma'nosini sharhlashlari, ularning kontekstda anglatib kelgan ma'nolari bilan qiyoslashlari, gap tarkibida bajaradigan vazifalari, ayni paytda qaysi so'z turkumlariga qarashli ekanligini aytishlari lozim bo'ladi.

1-topshiriq. So'zlarning lug'aviy ma'nosini sharhlang, qaysi so'z turkumiga qarashli ekanligini aniqlang.

1. Uy– odamlar yashashi uchun mo'ljallangan deraza, eshik, tomi bor bino; uy – nima? so'rog'iga javob bo'ladi, ot – so'z turkumiga kiradi.

2. To'y –nikoh, bazm, tantana, beshik to'yi, xatna to'yi, oltin to'y kabi muqobillari mavjud bo'lgan tantanali marosim; to'y – nima? so'rog'iga javob bo'ladigan turdosh otlar sirasiga kiradi.

3.Ishchi- birorta ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ulla-nuvchi shaxs; kim? so'rog'iga javob bo'ladi,turdosh ot.

4. Go'zal–Inson yoki tabiatning belgi-xususiyatini anglatadi, ma'nodoshlari: chiroyli, ko'rkam, jozibali, hashamatli; qanday? so'rog'iga javob bo'ladi, sifat-so'z turkumiga oid tushuncha.

5.O'qidi, ishladi–tugallangan ish-harakat ma'nosini bildi-radi: qiziqib o'qidi, tinmasdan ishladi, o'tgan zamon hikoya fe'li.

2-topshiriq. Mazkur so'zlar bilan so'z birikmalari hosil qiling, gaplar tuzing. Kim? nima? qanday? nima qildi? nima qiladi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing. Ularning qanday so'z turkumiga qarashli ekanligini aytib bering.

3-topshiriq. Gaplardan ot, sifat, fe'l turkumlariga oid so'zlarni ajratib guruhlang..va.h.k.

Shu tariqa lug'at diktanti tarkibidagi so'zlar og'zaki sharhlansa, o'quvchilarda:

- tafakkur doirasi kengayadi va rivojlanadi;
- fikr ifodalash ko'nikmasi shakllanadi va rivojlanadi;
- nutqda so'z qo'llash ko'nikmasi shakllanadi;
- so'z turkumlari yuzasidan egallangan bilimlar aniqlanadi, umumlashtiriladi, mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rahmatullayev Sh. **Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya.** – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Mirtojiyev M. **O'zbek tili grammatikasi.** – Toshkent: Fan, 2009.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. **O'zbek tilining nazariy grammatikasi.** – Toshkent: Fan, 1995.
4. Yo'ldoshev J., Usmonov S. **Pedagogik texnologiya asoslari.** – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
5. Saidahmedov N. **Yangi pedagogik texnologiyalar.** – Toshkent: Moliya, 2003.
6. Karimova S. **Ona tili ta'limida ijodiy topshiriqlar.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. G'afforova T. **Ona tili o'qitish metodikasi.** – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
8. Zunnunov A. **O'zbek tili o'qitish metodikasi.** – Toshkent: Fan, 2011.
9. Jo'rayev R. **Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar.** – Toshkent: Sharq, 2016.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. **Ona tili fani bo'yicha davlat ta'lim standarti.** – Toshkent, 2020.